

## ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA OCHIQLIKNI TA'MINLASH

**Yaxshilikov Bobosher Sherali o‘g‘li**

*IV Akademiyasi kursanti*

**Annotatsiya:** *Mazkur ilmiy maqola ichki ishlar organlarida ochiqlikni ta'minlash masalalarini o'rganishga bag'ishlangan. Demokratik jamiyatda davlat organlarining faoliyatida oshkorlik va shaffoflik tamoyillarining ustuvorligi, fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirokini kengaytirish, shuningdek, jamoatchilik nazoratini mustahkamlashda ochiqlik muhim o'rinn egallaydi. Ayniqsa, ichki ishlar tizimi singari fuqarolarning huquq va erkinliklariga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tashkilotlarda faoliyatning ochiqligi xalq ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. Maqolada ochiqlik tushunchasining mazmuni, ichki ishlar organlarida bu tamoyilning qanday qo'llanilayotgani, xalqaro tajribalar asosida ochiqlikni ta'minlashning samarali yo'llari tahlil qilingan. Xususan, jurnalistlar va OAV vakillari bilan ochiq muloqot, jamoatchilik kengashlari faoliyatining yo'lga qo'yilishi, axborot texnologiyalari orqali ochiqlikni ta'minlash vositalari – veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlar va elektron hukumat tizimlari kabi elementlar muhim o'rinn tutadi. Shuningdek, ichki ishlar organlari faoliyatida ochiqlikni ta'minlash bo'yicha mavjud muammolar – byurokratik to'siqlar, axborotga ega bo'lishdagi murakkabliklar, jamoatchilik bilan muloqotning sustligi kabi holatlar ko'rib chiqilgan. Muallif ushbu muammolarni bartaraf etish uchun normativ-huquqiy bazani kuchaytirish, kadrlar malakasini oshirish va zamonaviy kommunikatsiya vositalaridan keng foydalanish zarurligini ta'kidlaydi. Xulosa qismida ichki ishlar organlarida ochiqlikni ta'minlash orqali fuqarolar ishonchini oshirish, huquqbuzarliklarning oldini olish, korrupsiya darajasini pasaytirish va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining samaradorligini ta'minlash imkoniyatlari yoritib beriladi.*

**Kalit so'zlar:** *ochiqlik, ichki ishlar organlari, jamoatchilik nazorati, axborot texnologiyalari, ishonch, demokratik tamoyillar.*

**Аннотация:** Данная научная статья посвящена изучению вопросов обеспечения открытости в органах внутренних дел. В условиях демократического общества приоритетное значение приобретают принципы гласности и прозрачности в деятельности государственных органов, расширение участия граждан в управлении государством и укрепление общественного контроля. Особенно важна открытость в деятельности таких структур, как органы внутренних дел, которые непосредственно влияют на права и свободы граждан. В статье раскрывается понятие открытости, анализируются формы реализации данного принципа в системе органов внутренних дел, а также исследуются эффективные механизмы обеспечения прозрачности на основе международного опыта. В частности, рассматривается организация открытого диалога с представителями СМИ, деятельность общественных советов, а также роль информационных технологий в обеспечении открытости — официальные веб-сайты, социальные сети, системы

20-May, 2025-yil

электронного правительства. Особое внимание уделено существующим проблемам на пути к обеспечению открытости — бюрократическим барьерам, сложности в доступе к информации, слабой коммуникации с гражданским обществом. Автор подчеркивает необходимость усиления нормативно-правовой базы, повышения квалификации кадров и активного внедрения современных коммуникационных технологий. В заключении делается вывод о том, что обеспечение открытости в органах внутренних дел способствует росту доверия граждан, профилактике правонарушений, снижению уровня коррупции и повышению эффективности деятельности правоохранительных органов.

**Ключевые слова:** открытость, органы внутренних дел, общественный контроль, информационные технологии, доверие, демократические принципы.

---

**Abstract:** This scientific article is devoted to the study of issues related to ensuring transparency and openness in the activities of internal affairs bodies. In democratic societies, the principles of openness and transparency in the functioning of government institutions are of paramount importance, as they contribute to the expansion of public participation in governance and the strengthening of civil oversight. Openness is especially crucial for agencies such as internal affairs bodies, which have a direct impact on citizens' rights and freedoms. The article explores the concept of openness, analyzes how this principle is being implemented in the internal affairs system, and reviews effective mechanisms for ensuring transparency based on international practices. Notably, it discusses open communication with journalists and media representatives, the functioning of public councils, and the use of information technologies—such as official websites, social networks, and e-government platforms—as tools to foster openness. The study also addresses existing challenges in promoting openness within internal affairs agencies. These include bureaucratic obstacles, limited access to information, and weak engagement with the public. The author emphasizes the need to strengthen the legal framework, improve the qualifications of personnel, and actively use modern communication tools to enhance transparency. In conclusion, the article underscores that ensuring openness in internal affairs bodies can lead to increased public trust, better prevention of offenses, reduction in corruption levels, and overall improvement in the efficiency of law enforcement activities.

**Key words:** openness, internal affairs bodies, public oversight, information technology, trust, democratic principles.

---

## KIRISH

Bugungi kunda davlat boshqaruvi sohasida ochiqlik va shaffoflik prinsiplari demokratik tamoyillar asosida barqaror rivojlanayotgan har qanday jamiyatning ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. Jumladan, fuqarolarning davlat organlari faoliyati ustidan nazoratini ta'minlash, ularning axborotga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish, ijtimoiy adolat va qonun ustuvorligini mustahkamlashda ochiqlik muhim rol o'ynaydi. Bu holat, ayniqsa, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, jumladan, ichki ishlar organlarining faoliyati bilan bog'liq jarayonlarda o'zining dolzarbligini yanada yaqqol namoyon etmoqda.

20-May, 2025-yil

Ichki ishlar organlari – bu fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish, xavfsizlikni ta'minlash kabi strategik ahamiyatga ega bo'lgan masalalar bilan bevosita shug'ullanuvchi muhim tizim hisoblanadi. Ushbu tizim faoliyatining shaffofligi va ochiqligi davlatga nisbatan ishonchni oshirish, korrupsiya xavfini kamaytirish, fuqarolarning roziligi va ishtirokini ta'minlashda muhim omil sifatida maydonga chiqmoqda. Ayniqsa, bugungi global axborot asrida odamlar barcha davlat idoralari, xususan, ichki ishlar organlari faoliyatiga oid axborotlarni ochiq va tezkor ravishda olish imkoniyatiga ega bo'lishni istaydilar. Bu esa, o'z navbatida, ushbu tizimda ochiqlikni ta'minlash bo'yicha yangi yondashuvlar, zamonaviy kommunikatsion texnologiyalar, axborot siyosati hamda ijtimoiy muloqotni tashkil etishga qaratilgan mexanizmlarni talab etadi. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida ochiqlik va oshkoraliq masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezident farmonlari, qonunlar, hukumat qarorlari asosida davlat organlarining ochiq va fuqaroga yaqin faoliyat yuritishi uchun zaruriy huquqiy, tashkiliy va texnologik sharoitlar yaratilmoqda. Xususan, ichki ishlar organlarida ochiq eshiklar kunlarini tashkil qilish, ommaviy axborot vositalari bilan muntazam muloqotlar o'rnatish, ijtimoiy tarmoqlar orqali tezkor javob berish tizimlarini joriy etish kabi tadbirlar orqali fuqarolar bilan bevosita va interaktiv muloqot shakllari shakllantirilmoqda. Shuningdek, Jamoatchilik kengashlarining faoliyatini yo'lga qo'yish, axborot xizmatlari salohiyatini oshirish va davlat organlarining rasmiy saytlarini takomillashtirish orqali aholining davlat organlari faoliyati to'g'risida xabardorlik darajasini oshirish bo'yicha muhim qadmlar tashlanmoqda. Biroq, bu boradagi islohotlarga qaramay, ichki ishlar organlari faoliyatida ochiqlikni ta'minlashda bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Masalan, axborotga kirish imkoniyatining cheklanganligi, byurokratik to'siqlar, aholining murojaatlariga sust munosabat, raqamli vositalarning yetarli darajada ishlatilmasligi yoki noto'g'ri boshqarilishi kabilar ochiqlik prinsipining to'liq amaliyotga tatbiq etilishiga to'sqinlik qilmoqda. Bundan tashqari, fuqarolarning o'z huquqlari haqida yetaricha ma'lumotga ega emasligi va jamoatchilik bilan ochiq muloqotning tizimli shakllanmaganligi ham mavjud muammolardan biridir. Mazkur maqolada aynan shu jihatlar tahlil qilinadi. Ichki ishlar organlarida ochiqlikni ta'minlashning dolzarbliji, mavjud muammolar, xalqaro tajriba, axborot texnologiyalari vositalari orqali bu muammolarni bartaraf etish yo'llari, shuningdek, fuqarolar ishonchini oshirishda ochiqlik tamoyilining tutgan o'rni chuqur o'rganiladi. Maqola doirasida amaliy tavsiyalar ham ishlab chiqilib, ushbu tizimni yanada takomillashtirishga xizmat qiladigan takliflar ilgari suriladi.

## ASOSIY QISM

Ichki ishlar organlarida ochiqlikni ta'minlash masalasi bugungi kunda davlat boshqaruvi tizimida dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 30-moddasida har bir fuqaro axborot olish huquqiga egaligi belgilangan bo'lib, bu norma barcha davlat organlari, jumladan, ichki ishlar tizimi faoliyatida ham ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash majburiyatini yuklaydi. Ayni paytda bu borada ko'plab ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilayotganiga qaramay, hali hanuzgacha muammolar saqlanib qolmoqda. Ichki ishlar organlarida ochiqlikni ta'minlash uch asosiy yo'nalishda amalga oshiriladi: axborot berish, jamoatchilik bilan muloqot va faoliyat ustidan nazorat. Axborot

20-May, 2025-yil

berish yo‘nalishida ichki ishlar vazirligi va hududiy bo‘linmalarining rasmiy veb-saytlari, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali jamoatchilikka faoliyat haqidagi ma’lumotlar, yangiliklar, statistikalar muntazam yetkazilmoqda. Biroq bu axborotlar ko‘pincha umumiy xarakterga ega bo‘lib, jamoatchilik uchun ahamiyatli, tahliliy va dolzarb ma’lumotlar yetarli emas. Axborot xizmatlarining salohiyati, ayniqsa, quyi bo‘g‘inlarda (tuman, shahar miqyosida) sustligi sababli, aholining axborotga to‘laqonli kirish huquqi ta’milanmayapti. Jamoatchilik bilan muloqot borasida ham ijobiy harakatlar mavjud: O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan fuqarolar bilan “ochiq eshiklar kunlari”, “xalq qabulxonalarini” va onlayn muloqot platformalari yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, OAV vakillari bilan muntazam brifinglar, matbuot anjumanlari tashkil etilmoqda. Lekin bu chora-tadbirlar ayrim hollarda faqat formallikka asoslanib qolmoqda. Fuqarolar va jurnalistlarning tanqidiy mulohazalariga nisbatan javobgarlik darajasi, ochiqlik bilan yondashuv hamma hududlarda bir xil emas. Ayrim viloyatlarda bu tizim samarali ishlayotgan bo‘lsa, boshqalarda sustkashlik kuzatilmoqda. Faoliyat ustidan jamoatchilik nazoratining yo‘lga qo‘yilishi ham ochiqliknin ta’minalashda muhim omil hisoblanadi. So‘nggi yillarda jamoatchilik kengashlari tashkil etilgan bo‘lib, ularning vazifasi — ichki ishlar organlari faoliyatini monitoring qilish, fuqarolar murojaatlari bilan ishlash, jamoatchilik fikrini shakllantirishdan iborat. Biroq ushbu kengashlarning huquqiy maqomi va amaliy salohiyati to‘liq shakllanmagan. Ko‘p hollarda ular tavsiyaviy xarakterga ega bo‘lib, real ta’sir ko‘rsatish imkoniyatidan mahrum. Ochiqliknin ta’minalashda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda mobil ilovalar, chat-botlar, onlayn so‘rovnomalar, elektron murojaatlari tizimi orqali ichki ishlar organlari va fuqarolar o‘rtasida interaktiv aloqa o‘rnatilmoqda. Masalan, “my.mvd.uz” platformasi orqali murojaatlarni yuborish, yo‘l harakati qoidalari buzilishi haqida xabar berish, passport va boshqa hujjatlar bo‘yicha ma’lumot olish imkoniyati mavjud. Bu esa ochiqliknin yanada kuchaytiradi. Biroq, raqamli vositalardan foydalanish bo‘yicha aholining savodxonligi hamda texnik imkoniyatlar darajasi turli hududlarda turlicha ekani bu tizimning to‘laqonli ishlashiga to‘sinqinlik qilmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, rivojlangan davlatlar ichki ishlar tizimida ochiqliknin ta’minalash orqali fuqarolar bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yan. Masalan, Buyuk Britaniya, Kanada, Norvegiya kabi davlatlarda politsiya faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati juda kuchli. Har bir politsiya bo‘limi o‘z faoliyati bo‘yicha muntazam hisobot taqdim etadi, OAV bilan ochiq ishlaydi, fuqarolar ishtirokida strategik qarorlar qabul qiladi. O‘zbekiston sharoitida ham bu tajribani sinchiklab o‘rganib, milliy an’ana va imkoniyatlarga moslashtirilgan holda tatbiq etish maqsadga muvofiqdir. Shu bois, ichki ishlar organlarida ochiqliknin ta’minalash nafaqat fuqarolarning axborotga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqini amalga oshirish, balki davlat va jamiyat o‘rtasida ishonchli aloqani barpo etish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini zamon talablari darajasida olib borishga xizmat qiladi. Bu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar izchil davom ettirilib, jamoatchilik bilan ochiq va samimiy muloqotga asoslangan tizim shakllantirilsa, ochiqlik tamoyilining amaliy natijalari sezilarli bo‘lishi shubhasiz.

## XULOSA

Ichki ishlar organlarida ochiqlikni ta'minlash masalasi O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlar islohotlarning ajralmas tarkibiy qismiga aylanmoqda. Davlat boshqaruvida shaffoflik va hisobdorlik prinsiplari ustuvor yo'naliш sifatida belgilangani ichki ishlar tizimining ham zamonaviy, fuqaroga yo'naltirilgan va ochiq faoliyat yuritishini taqozo etadi. Bu holat nafaqat davlat organlarining samaradorligini oshiradi, balki fuqarolarning huquq va erkinliklarini real hayotda ta'minlash, ularning davlatga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. O'tkazilgan tahlillar asosida aytish mumkinki, ichki ishlar organlari faoliyatida ochiqlikni ta'minlash borasida muayyan yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, hali amalga oshirilishi zarur bo'lgan ko'plab ishlar mavjud. Xususan, axborot berish tizimini yanada takomillashtirish, uni faqat rasmiy va statistik ma'lumotlar bilan emas, balki jamoatchilik uchun dolzarb, tushunarli va tahliliy materiallar bilan boyitish zarur. Axborot xizmatlari va matbuot kotiblari faoliyatining real samaradorligini oshirish, ular orqali fuqarolar bilan muntazam, tizimli va ishonchli muloqot olib borish mexanizmlarini yaratish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Bundan tashqari, ichki ishlar organlari va fuqarolar o'rtasida jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish, bu orqali ochiqlikni ta'minlash masalasida bevosita ishtirok etishni ta'minlash lozim. Jamoatchilik kengashlari faoliyatini kuchaytirish, ularning mustaqilligini ta'minlash, huquqiy maqomini mustahkamlash, axborot olish vakolatlarini kengaytirish zarur. Ayniqsa, fuqarolarning ichki ishlar faoliyatiga oid muhim masalalardagi fikrlarini to'plash, tahlil qilish va qarorlar qabul qilishda hisobga olish orqali demokratiya tamoyillarini amaliyotga joriy etish mumkin. Ichki ishlar tizimida ochiqlikni ta'minlashda raqamli texnologiyalarning roli beqiyosdir. Elektron platformalar, mobil ilovalar, veb-saytlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali jamoatchilik bilan muloqotni kengaytirish, davlat xizmatlarining onlayn shaklini rivojlanТИRISH, murojaatlarga tez va sifatlari javob qaytarish, fuqarolarning o'zini erkin ifoda etish imkoniyatlarini yaratish orqali bu tizimni zamonaviy bosqichga olib chiqish mumkin. Shu bilan birga, barcha hududlarda raqamli xizmatlarning teng va sifatlari ishlashini ta'minlash, aholining axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirish masalasi ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ichki ishlar organlarining ochiq va hisobdor faoliyati aholining huquqiy ongini oshiradi, politsiyaga nisbatan ishonch darajasini yuqori bosqichga olib chiqadi, qonun ustuvorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shunday ekan, O'zbekiston sharoitida ham ochiqlik siyosatini bosqichma-bosqich chuqurlashtirish, bu yo'naliшdagи islohotlarni tizimli va kompleks tarzda olib borish zarur. Ayniqsa, fuqarolarni faol ishtirokchi sifatida jalg etish, ularning fikrlarini inobatga olish, ijtimoiy sheriklik tamoyillarini joriy etish orqali ichki ishlar organlarining faoliyati yanada ochiq va samarali bo'ladi. Mazkur maqolada ichki ishlar organlarida ochiqlikni ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar, mavjud muammolar, zamonaviy yechimlar va xalqaro tajriba tahlil qilindi. Ochiqlikni ta'minlashda axborot xizmatlarining samaradorligini oshirish, jamoatchilik bilan aloqalarni mustahkamlash, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, fuqarolar bilan ishonchli muloqotni tashkil etish kabi yo'naliшlar kelajakda tizim samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, ochiqlik – bu ichki ishlar

**20-May, 2025-yil**

organlarining zamonaviy va demokratik jamiyat talablariga mos faoliyat yuritishining kalitidir. Bu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan har bir harakat, har bir islohot natijada inson huquqlarini ta’minlashga, davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlashga qaratilgan bo‘lishi kerak. Ochiqlik – bu faqatgina tashqi ko‘rinish emas, balki tizim ichkarisida chuqur ildiz otgan tamoyil bo‘lishi zarur. Shundagina ichki ishlar organlari chinakam xalq xizmatiga aylanishi, xalq esa bu tizimni o‘zining ishonchli va halol himoyachisi sifatida qabul qilishi mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Qodirov. S. Sh. (2021). Davlat boshqaruvida ochiqlik va shaffoflik tamoyillarining huquqiy asoslari. – Toshkent: Yuridik nashr.
2. Rahmatullayev. A. (2020). Davlat va jamiyat boshqaruvida fuqarolik ishtirokini ta’minlash mexanizmlari. – Toshkent: Adolat.
3. Sobirov. F. B. (2022). Huquqni muhofaza qiluvchi organlarda jamoatchilik nazorati: muammo va yechimlar. // “Kriminalistika va sud ekspertizasi” ilmiy-amaliy jurnali, №3, 45–52-betlar.
4. Mamadaliyev. D. (2023). O‘zbekiston ichki ishlar organlarida axborot xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari. // “Ijtimoiy fanlar” jurnali, №2.